

**TARIX TA'LIMIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING  
NAZARIY VA AMALIY MASALALARI**

*Hamdamova Xolida Komiljonovna*

*Ohangaron shahar kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** interfaol usullar, kasb ta'limi, fidoyilik tuyg'usi.

2017-2021 yillarda "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmonda yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish masalasiga oid chora-tadbirlar quyidagicha belgilab berilgan<sup>1</sup>. Prezident SH.M.Mirziyoyev ta'lim sohasini isloh qilish, yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Prezident SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan.

Ushbu malaka ishida interfaol usullar haqida ma'lumot, hamda ularni dars jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yoritib berishga harakat qilinmoqda.

An'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelinishi va bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-

---

<sup>1</sup>2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy – uslubiy risola. –T.: Ma'naviyat, 2017. - B. 345-356.

interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Ana shu muhim vazifani amalga oshirish uchun Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etilishini yanada takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni interfaol tarzda tashkil etish amaliyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish yo'llarini izlash bugungi kunda pedagogikadagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, "Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi" mavzucini o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish yoshlarni nafaqat mavzu bo'yicha ta'limiy balki tarbiyaviy jihatdan ham mustaqil fikrga ega bo'lishini ta'minlaydi.

"Interaktiv" (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, "interact"- "inter"-bu o'zaro, "act"-bu "harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlashga, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday o'zaro harakat turlariga "o'quvchi – o'qituvchi" va "o'quvchi-o'quvchi"ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning obyektidan o'zaro hamkorlikning subyektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Interfaol o'qitish - o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi konsepsiyalari fundamental asos sifatida Interaktiv o'qitish texnologiyasi an'anaviy ma'ruza o'qitish uslubini ko'zda tutmaydi va shu bilan bir qatorda ma'ruza darslarini amaliy darslarga qarama-qarshi qo'yamaydi. Interaktiv o'qitishda ma'ruza va amaliyot bir butun mashg'ulotning qismlari deb qaraladi, bu o'qituvchi hamda o'quvchining o'zaro ta'siri va o'quvchilarning mashg'ulot davomida faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Ma'lumki, an'anaviy ma'ruza darslarida o'qituvchi faolligi ta'minlansa, amaliy

mashg'ulotlarda o'quvchi faolligi talab etiladi. Interaktiv uslubda o'qituvchidan mashg'ulot davomida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasining bir ko'rinishidan ikkinchisiga mavzuga bog'liq holda ustamonlik bilan ravon o'tishi talab etiladi. Interaktiv uslubdagi ma'ruza darslari jarayonini fan bo'yicha mavzuning maqsad va vazifasi hamda ta'lim oluvchilarning ehtiyojiga bog'liq holda taqsimlanadi.

An'anaviy ta'limda faqat tayyor bilimlarni egalashga qaratilgan usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

**Agar tahlil qiladigan bo'lsak,** an'anaviy o'qitishning o'ziga yarasha ham ijobiy ham salbiy tomonlari bor.

#### **An'anaviy darsning ijobiy tomonlari:**

- ilmiylik
- o'quvchi tabiatiga mosligi
- ketma-ketlik, tizimliliigi
- tushunarliliigi
- ko'rgazmalilik
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, amalda qo'llay bilish.

#### **Xulosa**

Har bir pedagog mustaqil ijodkor sifatida mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida jonlantirishi, yangilashi kerakligi bugungi kundagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy vazifalardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, fikrini himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, tafakkuri rivojlanib boradi.

Ta'lim muassasalarida interfaol metodlardan foydalanish o'qitishning eng muhim usuli sifatida qo'llanilib, bu borada kundan kun kengroq tadqiqotlar olib borilmoqda. Pedagoglarimiz esa izlanishmoqda. Har bir pedagog mustaqil ijodkor sifatida mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida jonlantirishi, yangilashi kerakligi bugungi kundagi muhim masalalardan hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

#### **1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
6. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. –T., 2003. – B.19.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T., “O'zbekiston, 2011.

#### **2. Normativ-huquqiy hujjatlar**

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitusiyaviy qonun // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. –T., 2000. 11-b.
4. Mustaqillik deklaratsiyasi // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. –T., 2000. 10-11-b.

#### **3. Maxsus adabiyotlar**

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: Cho'lpon, 2005.
2. Azizxo'jayev A. Chin o'zbek ishi. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
3. Egamberdiyeva N.M., Xodjayev B.X. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – B.30-32.
4. Ganiyeva M., Fayzullayev D. Zamonaviy o'qitish vositalarining pedagogik texnologiyalari to'plami. - T.: Iqtisodiyot, 2013;
5. Ganiyeva M., Fayzullayev D., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. -T.: Iqtisodiyot, 2013;
6. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspres qo'llanma. -T.: TESIS, 2001.-38 b.